

UDK: 811.512.133

MEDIAMULOQOT LINGVOKULTUROLOGIK OBYEKT SIFATIDA

To'xtasinova Nargizaxon Abdurashid qizi

Andijon davlat pedagogika instituti stajyor-o'qituvchisi

Gmail: Nargizaxontoxtasinova0207@gmail.com

+998993686998

Annotatsiya: Jamiyatning axborotlashuvi, media olamiga aloqador bo'lgan sohalar o'rtasidagi munosabatlarning xalqaro darajada tus olishi, axborot muhitining globallashuvi, ko'plab mamlakatlarda axborot to'siqlarining yo'q qilinishi, muloqot jarayoniga media vositalarining kirib kelishi media tilini ham lingvistik, ham kulturologik jihatdan o'rganishni medialingvistika oldiga ustuvor vazifa sifatida qo'ydi. Mediamuloqot jarayonida foydalaniladigan birliklarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilishda pretsedent birliklar haqida to'xtalib o'tish to'g'ri bo'ladi, chunki pretsedent birliklar til, madaniyat va media olamini bir nuqtada jam bo'lishiga yordam beradi. Ushbu maqolada mediamuloqot, pretsedent birliklar lingvokulturologiyaning asosiy o'rganish obyektlaridan biri ekanligi to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: mediamuloqot, media olam, lingvokulturologik obyekt, til va nutq, pretsedent birlik, televideniye, trend.

МЕДИАКОММУНИКАЦИЯ КАК ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ ОБЪЕКТ

Тўхтасинова Наргизахон Абдурашид қизи

Стажёр-преподаватель Андijanского государственного
педагогического института

Gmail: Nargizaxontoxtasinova0207@gmail.com

+998993686998

Аннотация: Информатизация общества, взаимосвязь медиамира, уровень информационного обмена, глобализация окружающей среды,

отсутствие информационных барьеров во многих странах, культурная связь развития медиа с коммуникативным процессом. сделал тщательное исследование приоритетом медиалингвистики. При лингвокультурологическом анализе единиц, используемых в процессе медиакоммуникаций, корректно остановиться на прецедентных единицах, поскольку прецедентные единицы помогают сблизить язык, культуру и мир в одной точке. Эта медиакоммуникация, прецедентные единицы являются одним из основных объектов изучения лингвокультурологии.

Ключевые слова: медиакоммуникация, медиамир, лингвокультурный объект, язык и речь, прецедентная единица, телевидение, тренд.

MEDIA COMMUNICATION AS A LINGUOCULTURAL OBJECT

Nargizakhan Tukhtasinova Abdurashid kizi

Andijan State Pedagogical Institute, teacher

Gmail: Nargizaxontoxtasinova0207@gmail.com

Tel: +998993686998

Abstract: *Informatization of society, interrelationship of media world, level of information exchange, globalization of the environment, lack of information barriers in many countries, cultural connection of media development to communication process. made rigorous study a priority for mediallynguistics. In the linguistic and cultural analysis of the units used in the media communication process, it is correct to dwell on the precedent units, because the precedent units help to bring language, culture and the world together at one point. This media communication, precedent units are about one of the basic study objects of linguo-cultural studies.*

Key words: *media communication, media world, linguistic and cultural object, language and speech, precedent unit, television, trend.*

Kirish

Til va madaniyatning bir-biriga ta'siri bilan bog'liq har qanday masalalarni o'rganishning dastlabki nuqtasi tilni madaniyatning eng asosiy omili sifatida ko'rib chiqishdan boshlanadi. Bu g'oya keyingi yillarda jahon olimlari tomonidan ham ilgari surilmoqda. Negaki til madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Xalqning madaniyatini saqlash va to'plashda muayyan tilga ega bo'lishlik juda muhim. Til madaniy birliklarni saqlab, to'plabgina qolmay, avloddan avlodga, bir xalqdan ikkinchi xalqqa yetkazib berishdek vazifani ham bajaradi. Ma'lum madaniyatni yaratish jarayonida, shuningdek, uning keyingi o'zgarishlari uchun imkoniyatlar yaratishda muhim o'rin egallaydi.

Til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to'g'risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuyi (madaniyat tarixi, o'zbek madaniyati)" demakdir. [1, 10]

Til va madaniyat o'rtasidagi muammolarni nazariy jihatdan tushunish zarurati, shuningdek, nutqning madaniy ahamiyatga ega bo'lgan tomonlarini tasniflash yo'llarini ishlab chiqishning dolzarbligi lingvokulturologiyani tilshunoslikning bir qismi sifatida shakllanishiga zamin yaratdi. Lingvokulturologiya til va madaniyatning amaldagi munosabati, o'zaro ta'siri, lingvistik birliklarni madaniy jihatdan o'rganuvchi bilimlarning yaxlit tuzilmasi sifatida yuzaga keldi.

Adabiyotlar tahlili

Bugungi kunda lingvokulturologiyani muayyan yo'l bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuyini o'rganadigan, nutqni yaratish va uni idrok qilishdagi jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tajribasini va milliy mentalitetni tadqiq etadigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda

beradigan, ta'limning bilim olish, tarbiyaviy va intellektual vazifalarining bajarilishini ta'minlaydigan yangi filologik fan sifatida qayd qilish mumkin. Demak, lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro aloqasini va o'zaro ta'sirini va bu jarayonni lisoniy va nolisoniy (madaniy) birliklarning bir butun strukturasi sifatida aks ettiradigan kompleks fandır. [2, 240]

Yana bir tilshunos N.Aliferenko lingvokulturologiyaga quyidagicha izoh beradi:

- lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u sintezlovchi xususiyatga ega;

- lingvokulturologiyaning asosiy e'tibori tilda izohlanadigan madaniy dalillarga qaratiladi;

- lingvokulturologiya tilshunoslik fanlariga kiradi, shuning uchun uning tadqiqot natijalaridan ona tili va chet tillari o'qitish jarayonida amaliy foydalanish mumkin;

- lingvokulturologiya tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari: a) lisoniy shaxs; b) til madaniy qadriyatlarining semiotik gavdalantirish tizimi hisoblanadi. [3, 21]

Jahon tilshunos olimlaridan biri bo'lgan V.A.Maslova o'zining lingvokulturologiya masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlarida o'z qarashlarini quyidagicha bayon etadi: "Madaniy qadriyatlar universal va individual, asosiy va qo'shimcha ma'nolarni ajratib ko'rsatish mumkin bo'lgan tizimdir. Ular tilda, aniqrog'i, so'z va sintaktik birliklar ma'nolarida, frazeologik birliklarda, paremiologik fond va pretsedent matnlarda o'z aksini topadi". [4, 49]

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada tilshunoslik va madaniyatshunoslik kesishgan nuqtada yuzaga keluvchi lingvokulturologiyaning obyektlaridan biri bo'lgan mediamuloqotning nazariy asoslari turli amaliy va metodologik yondashuvlar bilan tahlil qilindi.

Ushbu metodlar televideniye, ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot jarayonlarini tahlil qilish asosida to'plangan materiallar asosida izohlab beriladi.

Tahlillar va natijalar

Mediamuloqot jarayonida foydalaniladigan birliklarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilishda *pretsedent birliklar* haqida to'xtalib o'tish to'g'ri bo'ladi, chunki pretsedent birliklar til, madaniyat va media olamini bir nuqtada jam bo'lishiga yordam beradi. Shuning uchun pretsedent birliklar lingvokulturologiyaning asosiy o'rganish obyektlaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, tilshunoslikda muayyan til sohiblariga yaxshi tanish bo'lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatida qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so'z birikmalari, jumlar hamda matnlar pretsedent birliklar sifatida qayd etiladi. [5, 114]

Televideniye orqali namoyish etilgan turli kino, serial, spektakllardagi ayrim mashhur jumlar tilimiz va onggimizga singgishib qolgan. Bunday birliklar barqaror birikmalar singari muloqot jarayonida nutqimizga tayyor olib kiriladi. Bu kabi pretsedent birliklarni nutqqa olib kirilishi so'zlovchi uzatayotgan axborotning yanada ta'sirchan va tushunarli bo'lishi uchun xizmat qiladi. Muloqot davomida bu kabi birliklarning qo'llanilishi do'stona muhit yaratilishiga ko'mak beradi.

Necha yillar mobaynida televideniye orqali uzatilgan filmlardagi mashhur jumlar xalqning lisoniy xotirasidan joy olib, axborot-almashinuv paytida bildirilayotgan fikrning tasdig'i, so'zlovchi axborotiga nisbatan ishonch yoki ishonchsizlik, hurmat, kesatiq kabi ma'nolarni ifodalashda foydalanib kelingan. Tinglovchi ayni paytda bunday pretsedent birliklarni nutq vaziyatiga qarab qaysi ma'noda qo'llanilayotganini payqab olishi mumkin. Asosan, bu kabi lisoniy birliklarning nutq jarayoniga olib kirilishi muloqotdoshlar kayfiyatining ko'tarilishiga, hazil-mutoyibaning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. E'tiborli tomoni shuki, turli film, kino, serial, spektakllar bilan yonma-yon ravishda multfilmlardagi ayrim jumlar ham pretsedent birliklar sifatida iste'molda qo'llanilib keladi.

Multifilm tomosha qiluvchilar doirasi yosh jihatdan chegaralangan bo'lsa-da, ulardagi ba'zi gaplar, jumlar kattalar nutqiga ham o'rnashib, barqarorlashib qolgan. Buni insonlar orasida sinab ko'rish maqsadida Facebook ijtimoiy tarmog'iga quyidagi mazmundagi post qo'yildi: *“Assalomu alaykum, hurmatli vatandoshlar, sizlardan bir masala yuzasidan yordam so'ramoqchiman. Bolajonlarimiz, qolaversa, o'zimizning yoshligimizda ko'rgan multfilmlardagi hammaga yod bo'lib ketgan so'zlar, gaplar, jumlalani eslashda yordam bera olasizlarmi? Masalan, “Alvastijon, qayerdasan, yer yutgur” (“Hurmattalab Alvasti”), “Do'stlar, kelinglar, ahil, inoq yashaylik” (“Leopoldning xazinasini”), “Qanday go'zal bu olam, bir qara” (“Daydi To'tining qaytishi”).*

Facebook ijtimoiy tarmog'i foydalanuvchilari tomonidan kelgan izohlar natijasi sifatida multfilmlardagi mashhur jumladan ayrimlarini keltirib o'tamiz: *“Haligi, sichqonlarning nikoh to'yi haqidagisi bor-ku” (“Qunduz amaki qissalari”), “Aytgandim-a shu tepalikka chiqmaylik deb” (“G'aroyib sayohat”), “Anpanman, Anpanman, sensan bizning qahramon” (“Anpanman”), “Bu yomg'irdan keyin sening sigiring rosa bolalaydi”, “Vasiliy...Vasiliy...Vasya” (“Daydi to'tining qaytishi”), “Alvastijon, qayerdasan, qorang o'chgur”, “Qo'rqa, hurmat qiladi”, “Ivanushkani bilasan-a? Haligi Alyonushkaning ukasini” (“Hurmattalab Alvasti”), “Sovuqmi? Judayam sovuq” (“Qizcha va quyunchalar”), “Leopold, buyoqqa chiq, buyoqqa chiq, yaramas qo'rqa” (“Leopoldning xazinasini”), “Qay yurtlarda bo'ldingiz, So'ylang, nalar ko'rdingiz?” (“Shoh Saltan haqida ertak”), “Qornim to'ydi, endi yotib uxlayman” (“Zumrad va Qimmat”).*

Multfilmlardagi bu kabi mashhur jumlar muloqot davomida so'zlovchilar nutqida pretsedent birliklar sifatida qo'llaniladi.

Media maydonining qamrov doirasi kengayib borgani, xususan, mediamuloqot jarayonida qo'llaniluvchi mediavositalar sonining ortishi ko'plab shaxslar e'tiborini ushbu makon atrofiga jamladi. Tik Tok, Instagram, You Tube, Facebook, Telegram tarmoqlariga joylangan ayrim videolardagi nutqiy birliklar

ham lisoniy, ham kulturologik jihatdan tahlil talab qilmoqda. Negaki bunday videolar orqali namoyish etilayotgan axborotlardagi ba'zi so'zlar, jumlar xalqning so'zlashuv jarayoniga tezlik bilan kirib kelmoqda. Yaqin yillar oralig'ida Internet tarmoqlarida kichik haymli videolar, vaynlar olish, tarqatish kabi holatlarnihoyatda ko'payib ketdi. Bu nafaqat tomoshabinlarning madaniy tafakkuriga, balki nutqiy faoliyatiga ham ta'sir o'tkazmay qolmadi. Bugungi kunda "trend"da bo'lgan videolar va ular orqali mashhurlikka erishayotganlarning tashqi ko'rinishi, shuningdek, ular tomonidan qo'llanilayotgan nutqiy birliklar keng jamoatchilikning so'zlashuv, aloqa-almashinuv jarayoniga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Internet tarmoqlaridan foydalanuvchilar sonining ortib borishi natijasida Tik Tok, Instagram, Facebook, You Tube singari ijtimoiy tarmoq va platformalaridagi ba'zi jumlar ham omma nutqida pretsedent birlik sifatida qo'llanilmoqda. Misol sifatida bugungi kunda trendga chiqqan ayrim jumladan namunalar keltirib o'tamiz: *"O'zbekistonni alishmasman boshqa jahonga, O'zbekiston tengdir O'zbekistonga", "Er o'zi nimaga kerak?", "Ming so'm bering, akajonlar, iltimos sizlardan, akajonlar", "Ikkinchi marta viyu, viyu, viyu dediyu, var-r-r etib, manbuyoq qarab ketib qoldi", "Ko'pkarining hech qanaqa foydasi yo'q. Bu hech nima bermaydi, bu bir nosning kayfiday kayf", "Kuyib o'l, Lalitto", "Men Tursunxonman, sog' bo'lasizlar", "Biz bilgandik, biz kutgandik", "Akanq kuchaydi uje", "Alamlar, haliyam qiynaydi meni o'sha kungi alamlar", "O'n, o'n besh yildan keyin shaftoli qoqiga aylanib qoladi", "Xotinim meni urardi", "Meni babo'vcha deydi", "Men olamdagi sakkizinchi mo'jizaman", "Katta bo'lsam, bandit (bankir) bo'laman", "Mazzami sizlarga, mazzami", "Qishloq tinch, sokin, asablaringiz dam oladi, mazza", "Ey, pokiza", "E go'dakkina, Lankurozer seni kutyapti", "Jo Baydenning qizi", "Men bilamanta-a", "Jigarimga tekkizolmadi-yu-u-u", "Tugadi".*

Xulosalar

Yuqoridagi misollarimizdan ma'lum bo'ladiki, muayyan millat egasining lisoniy dunyosi, madaniy dunyosi bilan chambarchas bog'liqlikda bo'ladi. Til

madaniyatga, madaniyat esa tilga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlar, televideniye orqali uzatilayotgan bu kabi media axborotlarga tilshunoslik nuqtai nazaridan ham, madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham baho berish o'rinli. Onggimizda lisoniy baza sifatida saqlanib turadigan, tilimizga o'rnashib qolgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriladigan mashhur jummalarni til imkoniyatlari doirasi bilan bir qatorda, kulturologik jihatdan ham o'rganish va tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Adabiyotlar

1. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012, - № 5, -B.10
2. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. Монография. – М.: Изд-во РУДН, 2008, 240 с.
3. Алифференко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. – М.: Флинта, Наука, 2010. -21 с.
4. Маслова. В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие. Москва .2001. Б 49.
5. Xudoyberganova D. Til. Tafakkur. Madaniyat / Matnning pretsedent shakli. Toshkent: Nodirabegim, 2020. - Б – 114.
6. To'xtasinova N. The role of medialinguistics as a modern scientific direction in the language system//International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management, ISSN:2349-0012 Published in Volume 2, Issue 2. 2023, 44-b.
7. To'xtasinova N. Paralinguistic factors of media communication//Научный импульс, №8(100), часть 1. Март 2023.
8. To'xtasinova N. Mediamatn – Medialingvistikaning yetakchi obyekti//O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar, ISSN:2181-3302, 17-son. 30.04.2023.